TOSHKENT VILOYATI PISKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 30-oktabr 299-10-142-Q/24 Piskent tumani hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish maqsadida ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 13-moddasi (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020-y., 03/20/642/1396-son), “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2008-yil, 29-30-son, 277-modda) 25-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-401-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumanda 2025-yilga mo‘ljallab ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish maqsadida tumandagi korxona, tashkilot va muassasalarga xodimlarining ro‘yxat bo‘yicha ish o‘rinlarining eng kam soni 104 ta etib belgilansin:

14 yoshga to‘lmagan bolalari va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota- onalar uchun 30 ta o‘rin;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim mussasasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 56 ta o‘rin;

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari safidan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun - 7 ta o‘rin;

nogiron shaxslar uchun 4 ta o‘rin;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun – 4 ta o‘rin;

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 1 ta o‘rin;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun – 2 ta o‘rin.

2. Tuman bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish maqsadida ish o‘rinlarini 2025-yil uchun eng kam sonini belgilab qo‘yishi lozim bo‘lgan korxona, tashkilot va muassasalar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga:

ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2024-yil 20-dekabr kuniga qadar kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2025-yilning 10-aprelidan kechikmagan holda ish joylarining qolgan qismi 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo‘yish) to‘g‘risidagi, ya’ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga taqdim etish, har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha belgilangan shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Ish o‘rinlari band qilingan korxona va tashkilotlar tomonidan 2025-yil 1-aprelga qadar band qilingan ish o‘rinlarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-sentabrdagi 263-son qaroriga asosan belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tkazilishi amalga oshirilsin.

5. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish joylarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini (ajratilishini yoki band qilib qo‘yilishini) hamda ish joylari sanitariya-gigiyena normalariga va xodim o‘z majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasinlar.

6. Mazkur qaror ijrosi ta’minlanmaganda, shuningdek muhtojlarni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun korxona, tashkilot va muassasalarning mansabdor shaxslari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandiga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha tuman hokimining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

7. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i M.Miryunusovga:

bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlasin;

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2019-yil 10-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2019-yil 31-mayda 3163-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Nizom talablariga asosan tuman hokimining qarori bilan belgilangan rejadan ortiq toifalardan kelib chiqib, ishga qabul qilingan har bir xodim uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 2 barobari miqdorida 12 oy davomida mablag‘ ajratilishini nazarda tutsin.

8. Tuman hokimining 2023-yil 28-oktabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi 202-10-142-Q/23-son qarori 2024-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Manayevga zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v.b **M.Aripov**

Piskent tuman hokimining
2024-yil 30-oktabrdagi
299-10-142-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Piskent tumanidagi tashkilotlar bo‘yicha ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobat qila olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risida
MA'LUMOT

№	Hudud nomi	Korxona va tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	Jami band qilingan ish o‘rinlari soni	14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta'lim olgan bitiruvchilari	Muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar	Nogironlar uchun	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni o‘tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurboni uchun	Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar hamda qonun hujjatlarga muvofiq boshqa shaxslar uchun (20.03.1997 yil VM-153-son qarori)	Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar
1	Piskent	"SAXOVAT BROYLER" mas'uliyati cheklangan jamiyati	303174865	668	**9**	**6**	**1**	**2**						
2	Piskent	"ZHONGITAN CHEMIKAL" МЧЖ	304951239	173	**7**	**3**		**4**						
3	Piskent	19-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	207272862	54	**1**	1								
4	Piskent	8-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	306627622	41	**1**	1								
5	Piskent	7-sonli umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti	306627582	50	**1**	1								
6	Piskent	4-sonli umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti	207068957	37	**1**		1							
7	Piskent	3-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	207293433	37	**1**		1							
8	Piskent	Piskent tumani hokimiyatiga qarashli obodonlashtirish bo`limi	204595605	192	**4**						4			
9	Piskent	5-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	207023625	47	**1**		1							
10	Piskent	Piskent tumani 1-son kasb-hunar maktabi	200450851	94	**2**	1	1							

11	Piskent	5-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	203175732	120	**4**	2	2							
12	Piskent	38-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907592	31	**1**		1							
13	Piskent	36-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907577	48	**1**		1							
14	Piskent	17-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	207023664	80	**2**	1	1							
15	Piskent	26-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	207325977	33	**1**		1							
16	Piskent	39-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	308785892	37	**1**		1							
17	Piskent	16-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	207303933	36	**1**		1							
18	Piskent	33-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907545	35	**1**		1							
19	Piskent	18-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907442	49	**1**		1							
20	Piskent	21-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907466	38	**1**		1							
21	Piskent	41-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907624	51	**1**		1							
22	Piskent	15-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907410	42	**1**		1							
23	Piskent	25-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907498	40	**1**		1							
24	Piskent	30-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907521	40	**1**		1							
25	Piskent	2-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907316	70	**2**	1	1							
26	Piskent	29-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907514	51	**1**		1							
27	Piskent	24-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907481	58	**1**		1							
28	Piskent	13-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907394	33	**1**		1							
29	Piskent	14-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907403	41	**1**		1							
30	Piskent	12-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907387	57	**1**		1							
31	Piskent	37-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907584	34	**1**		1							
32	Piskent	11-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907370	31	**1**		1							
33	Piskent	30-sonli bolalar musiqa maktabi	205194684	73	**2**	1	1							
34	Piskent	19-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907434	59	**1**		1							
35	Piskent	1-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	203222744	124	**1**		1							
36	Piskent	12-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	207023640	46	**1**		1							
37	Piskent	23-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907474	70	**2**	1	1							
38	Piskent	40-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907617	73	**2**	1	1							
39	Piskent	9-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907355	40	**1**		1							
40	Piskent	10-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907363	58	**1**		1							

41	Piskent	20-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907459	56	**1**		1							
42	Piskent	32-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	203209442	49	**1**		1							
43	Piskent	8-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	203425752	50	**1**		1							
44	Piskent	PISKENT TUMANI BOLALAR-O`SMIRLAR SPORT MAKTABI	203275988	60	**1**	1								
45	Piskent	4-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907331	76	**2**	1	1							
46	Piskent	17-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	203222737	43	**1**		1							
47	Piskent	28-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	203209403	61	**1**		1							
48	Piskent	PISKENT TUMANI TIBBIYOT BIRLASHMASI	200450740	1456	**16**	4	5		4	1				2
49	Piskent	7-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907348	45	**1**		1							
50	Piskent	79-sonli imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internati	200450685	152	**1**	1								
51	Piskent	31-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907538	49	**1**		1							
52	Piskent	35-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	206907560	28	**1**		1							
53	Piskent	14-sonli umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti	207272830	23	**1**		1							
54	Piskent	2-sonli umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti	207067824	50	**1**		1							
55	Piskent	3-sonli umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti	207068925	47	**1**		1							
56	Piskent	"PISKENT TUMAN YO'LLARDAN FOYDALANISH KORXONASI" DAVLAT MUASSASASI	200449559	81	**2**	1		1						
57	Piskent	PISKENT TUMANI IRRIGATSIYA BO`LIMI	207264484	49	**1**		1							
58	Piskent	27-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	203299808	66	**1**		1							
59	Piskent	22-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	203209434	87	**1**	1								
60	Piskent	6-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	203175724	67	**1**	1								
61	Piskent	42-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi	203188597	56	**1**		1							
		JAMI		**5642**	**104**	**30**	**56**	**7**	**4**	**1**	**4**	**0**	**0**	**2**